

GASTRIT VA XOLETSISTIT KASALIKLARI BO'LGAN BEMORLARDA OSHQOZON SHIRASINING FUNKSIONAL FAOLLIGI

Xaydarova Zarrina Erkinovna

Assistent

Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrası

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Samarqand. Uzbekistan

Annotatsiya: Maqolada yillar davomida gastrit va xoletsistit kasaligi bilan kasallangan bemorlarda oshqozon shirasi funksional holatini olib borilgan kuzatuv va tekshruv natijalari keltirilgan. Erkak va ayollarda oshqozondagi ximozin fermenti faolligi o'rganilgan. Ximozin fermentining faolligi xoletsistit kasaligi bilan kasallangan bemorlarda, gastrit kasaligi bilan kasallangan bemorlarga qaraganda ancha past ko'rsatkichni tashkil qiladi.

Kalit so'zlari: Odamlar, bemor, kuzatuv, gastrit, xoletsistit, oshqozon shirasi, ximozin, erkak, ayol.

ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ АКТИВНОСТЬ ЖЕЛУДОЧНОГО СОКА У ПАЦИЕНТОВ С ГАСТРИТОМ И ХОЛЕЦИСТИТОМ

Хайдарова Заррина Эркиновна

ассистент кафедры пропедевтики внутренних болезней

Самаркандский государственный медицинский университет

Самарканд, Узбекистан

Аннотация: В статье представлены результаты наблюдений и исследований функционального состояния желудочного сока у пациентов с гастритом и холециститом за прошедшие годы. Изучалась активность фермента химозина в желудке у мужчин и женщин. Активность фермента химозина у пациентов с холециститом значительно ниже, чем у пациентов с гастритом.

Ключевые слова: Люди, пациент, наблюдение, гастрит, холецистит, желудочный сок, химозин, мужчина, женщина.

FUNCTIONAL ACTIVITY OF GASTRIC JUICE IN PATIENTS WITH GASTRITIS AND CHOLECYSTITIS

Khaydarova Zarrina Erkinovna

Assistant, Department of Propaedeutics of Internal Diseases

Samarkand State Medical University

Samarkand, Uzbekistan

Abstract: This article presents the results of observations and studies of the functional state of gastric juice in patients with gastritis and cholecystitis over recent years. The activity of the enzyme chymosin in the stomach of men and women was studied. Chymosin activity in patients with cholecystitis is significantly lower than in patients with gastritis.

Keywords: People, patient, observation, gastritis, cholecystitis, gastric juice, chymosin, man, woman.

Kirish. Hozirgi vaqtda yara paydo bo'lishining umumqabul qilingan nazariyalari H. pylori ning doimiy saqlanishi va kislota-peptik omilning o'zaro patogen ta'sirini kuchaytirishi nuqtai nazaridan ko'rib chiqilmoqda. Shu bilan birga, H. pylori kasallikning surunkali kechishini qo'llab-quvvatlaydi va qaytalanish xavfini yaratadi [1,2]. Surunkali qabziyat bugungi kunda eng keng tarqalgan patologik holatlardan biri hisoblanadi. Qabziyatlar izolyatsiya shaklida uchraydi yoki biror patologiyaning (gastrit, xoletsistit, spastik yoki atonik kolit va boshqalar) simptomi sifatida namoyon bo'lishi mumkin [3,4]. Yara kasalligining dolzarb masalalariga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar mavjud bo'lishiga qaramay, hozirgacha o'n ikki barmoqli ichak va oshqozon yara kasalligining qaytalanishi, oshqozon shilliq qavatida HP ning yuqishi, yara kasalligining davomiyligi, asoratlangan yoki asoratlanmagan kechishi, bemorlarning jinsi va yoshi, davolanishgacha bo'lgan yara soni va o'lchami hamda yuqoridagi ko'rsatkichlarga bog'liq holda yara bitish samaradorligi o'rtasidagi mumkin bo'lgan bog'liqlik (yoki uning yo'qligi) aniq emas [5,6,7]. Oshqozon bezlarining ko'p sonli funktsiyalaridan biri uning proteolitik faoliyatidir. Shuning uchun oshqozon shirasining ximaz faolligi holati

bo'yicha oshqozonning proteolitik funktsiyasi haqida xulosa chiqarish mumkin. Surunkali o't yo'llari kasalliklarida oshqozon sekretsiyasi holati yoritilgan. Biroq oshqozonning proteolitik funktsiyasini o'rganishga kam e'tibor qaratilgan.

Tadqiqot maqsadi. Gastrit va xoletsistit bilan kasalangan bemorlarda oshqozon shirasining funksional faolligini o'rganish.

Tadqiqot materiallari va usullari. Bir yil davomida biz turli etiologiyali xoletsistit bilan og'rikan 53 nafar bemorni kuzatdik. Deyarli barcha bemorlarda qo'shimcha kasallik sifatida gastrit aniqlangan. 39 nafar bemorda oshqozon tarkibi Leporskiy usuli bo'yicha 5% li spirtli Ertman nonushtasi yordamida, 14 nafarida esa insulin-gistaminli qo'zg'atuvchi bilan o'rganildi. Ximaz faolligi Savich usuli bo'yicha och qoringa va qo'zg'atuvchilardan keyin aniqlandi. Tekshirilganlar orasida ayollar 43 nafar, erkaklar 10 nafar edi.

Tadqiqot natijalari. Ayollar orasida normal ximaz faolligi 38 nafar bemorda, pasaygan — 3 nafarda, qoniqarsiz — 1 nafarda kuzatildi. Erkaklar orasida normal ximaz faolligi 6 nafar bemorda, pasaygan — 2 nafarda, qoniqarsiz — 2 nafarda aniqlandi. Normal ximaz faolligi uchun oshqozon shirasining 1:640 va 1:320 darajada sutni ivitishi qabul qilindi, pasaygan — 1:160 va 1:80, qoniqarsiz — 1:40, 1:20, 1:10 yoki barcha darajalarda sutning umuman ivitilmasligi kuzatildi.

Oshqozon shirasining ximaz faolligi kasallik davomiyligiga, sekretsiya va kislota hosil qilish funktsiyasiga bog'liq holda o'rganildi. Shu bilan birga, ximaz faolligining kasallik davomiyligiga bog'liqligini aniqlashning iloji bo'lmadi.

Xulosa. Shunday qilib, xoletsistitli bemorlarda oshqozon shirasining ximaz faolligi bemorlar jinsidan va kasallik davomiyligidan qat'i nazar, biroz pasayish tendentsiyasiga ega; u sekretsiya va kislota hosil qilish funktsiyasiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lib, bu guruh bemorlarda oshqozonning funksional holatini baholashda hisobga olinishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Амиров, Н.Ш. Патогенетические аспекты роли ферментов в механизмах язвообразования в желудке / Н.Ш. Амиров, Д.В. Антонов // Рос.гастроэнтерологический журнал. 2000. - № 4. - С. 102.
2. Абдулхаков Р.А. Клинико-морфологические особенности больших и гигантских гастродуоденальных язв. //Российский журнал гастроэнтерологии, гепатологии, колопроктологии. 2001. - №2. - Т.ХI, Приложение №13. - С.5-7.
3. Хайдарова З. Э. энтропия и нарушения сердечного ритма у больных, перенесших инфаркт миокарда //Journal of cardiorespiratory research. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 59-62.
4. Бекмурадова М. С., Хайдаров С. Н. Связь между повышенным пульсовым давлением и натрийуретическим пептидом //Journal of cardiorespiratory research. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 26-29.
5. Маматалиев А. Р. Особенности нейрогистологическое строение интразонального нервного аппарата вне печеночных желчных протоков у крыс //экономика и социум. – 2024. – №. 3-2 (118). – С. 692-695.
6. Narbayev S. et al. Behavioral adaptations of Arctic fox, *Vulpes lagopus* in response to climate change //Caspian Journal of Environmental Sciences. – 2024. – Т. 22. – №. 5. – С. 1011-1019.
7. Mamataliev A. R. NEUROHISTOLOGICAL CHANGES IN THE VAGUS NERVE UNDER THE INFLUENCE OF COLCHICINE IN AN EXPERIMENT //Экономика и социум. – 2025. – №. 11-1 (138). – С. 310-312.